



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 3

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





70-80-YILLAR O'ZBEK SHE'RIYATIDA SAN'AT MAVZUSINING OMMALASHUVI: SABABLARI VA KO'LAMI

Mahmudov Sardorbek

KUAF o'zbek va rus filologiyasi
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: 70-80-yillarga kelib yangi qahramon va mavzularning yaratilishi ijtimoiy-siyosiy, ijodkorning ma'naviy-ruhiy holatiga bog'liq tabiiy jarayon o'laroq maydonga keldi. Bu tabiiylikning mohiyati shuki, ushbu davrda boshqa san'at turlari (teatr, rangtasvir, musiqa, haykaltaroshlik, sirk va h.k.) ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallagan, buning natijasida san'at turlarining bir-biriga yaqinlashuvi (sintezlashuvi) yaqqol ko'rinib qolgan edi. Maqolada 70-80-yillar o'zbek she'riyatida san'at mavzusining ommalashuviga sabab bo'lgan omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: adabiyot, san'at, san'atkor, adabiyot, ijtimoiylashuv, sintezlashuv, teatr, musiqa, rassomchilik.

Аннотация: К 70–80-м годам создание новых героев и тем предстаёт как закономерный процесс, связанный с общественно-политическим, духовным и духовным состоянием творца. Суть этой закономерности заключается в том, что в этот период другие виды искусства (театр, живопись, музыка, скульптура, цирк и др.) занимают важное место в общественной жизни, в результате чего отчётливо проявляется конвергенция (синтез) видов искусств. В статье анализируются факторы, обусловившие популяризацию темы искусства в узбекской поэзии в 70–80-е годы.

Ключевые слова: литература, искусство, художник, литература, социализация, синтез, театр, музыка, живопись.

Abstract: By the 1970s and 1980s, the creation of new heroes and themes emerged as a natural process linked to the socio-political, spiritual, and spiritual state of the artist. The essence of this pattern lies in the fact that during this period, other forms of art (theater, painting, music, sculpture, circus, etc.) occupied an important place in public life, resulting in a distinct convergence (synthesis) of art forms. This article analyzes the factors that led to the popularization of art in Uzbek poetry in the 1970s and 1980s.

Keywords: literature, art, artist, literature, socialization, synthesis, theater, music, painting.

XX asrga kelib adabiyot, jumladan she'riyatning ijtimoiylashuvi tezlashdi. Asr boshidanoq mamlakatning siyosiy- ijtimoiy hayot tarzida o'zgarishlar sodir bo'lgandi. D.Quronov bu haqida shunday yozadi: "Hamma gap XX asr boshlari Turkiston jamiyatida shaxs maqomining o'zgargani, insonning ijtimoiylashganida. Sodda qilib aytsak, Turkiston kishisi





jamiyatning ahvoli, buguni va ertasi, mavjud holning sababi – xullas siyosat haqida bosh qotiradigan bo'ldi". Chor Rossiyasining yurtimizni bosib olishi bilan o'zga hayot tarzining kirib kelishi, madaniyatlarning qorishuvi insonlarning ong va tafakkurida evrilishlar sodir bo'lishiga sabab bo'lgandi. "O'zga hayot tarzining kirib kelishi, yangicha ijtimoiy munosabatlarning qaror topishi jamiyatda shaxs maqomining o'zgarishiga, inson fitratidagi ijtimoiylik ibtidosining kuchayishi va shuning natijasi o'laroq lirikaning ijtimoilashuviga olib kelgan" edi. Lirikaning ijtimoiylashuvida boshqa san'at sohalarning ham o'rne beqiyos. Chunki bu davrga kelib san'at sohalarning taraqqiy etishi, jamiyat hayotida tutayotgan o'rni yuksalib borayotgan edi.

XX asr avvalida teatr, rassomchilik, kino, fotografiya h.k. sohalarning kirib kelishi ilgaridan mavjud san'at turlarining ifodaviy-shakliyl xususiyatlariga ta'sir etdi. Bu esa inson dunyoqarashida keskin o'zgarishlarni amalga oshirdi. Shu tariqa, yangi davr she'riyati oldiga ifodaviy- shakliyl jihatdan yangilanib ulgurgan tasviriyl san'at, bundan tashqari, ommalashib borayotgan teatr va kino san'atlariga xos ifoda shakllarini o'zlashtirish, zamonaviyl o'quvchining estetik ehtiyojlarini qondirish masalasini qo'ydi. 70-80-yillar she'riyatida san'at mavzusining ommalashuviga esa yuqoridagi omillar rivojlanib borishi natijasi sabab bo'lgandi. 60-80-yillar o'zbek san'ati tarixida yangi bosqich bo'lib, milliy san'at xususiyatlarining yanada mustahkamlanishi, san'atda milliy o'ziga xoslikni izlash bilan birga shaxsiyl his-tuyg'ularni ifodalashga o'tib borilishi bilan xarakterlanadi. Bu davrga kelib san'atning ko'lami oshdi. Rassomchilik, teatr, kino, fotografiya, musiqa va boshqa san'at sohalari ham o'zining cho'qqisiga erishdi desak adashmagan bo'lamiz. Bu o'z navbatida uslubiy rang-baranglikni oshirib tasviriyl va ifoda vositalarining kengayishiga olib bordi. Ijodkorlar dunyoqarashida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Endi ijodkor zamon bilan hamnafas holda ijtimoiyl hayotdagi yutuq va kamchiliklarni, jamiyat a'zolarining his-kechinmalarini his qilgan , boshqa san'at sohalari bilan aloqa qilgan holda ijod qila boshladi. Bu esa she'riyatni keng ko'lamda rivojlanishiga turtki bo'ldi. Xususan rassomlar ijodida turli ramziyl obrazlar, shartli belgilar, rang, shakl, chiziql, faktura imkoniyatlaridan keng foydalanishga urindilar. Bunday izlanishlar yuzaga kelishiga 50- 60-yillar oralig'ida san'at sahniga kirib kelgan professional ta'limni Moskva, Peterburg, Toshkent oliyl dargohlaridan olgan ijodkorlar sababchi bo'ldi. O'z izlanishlari va tadqiqotlari natijasida rassomchilikning keng tarmoqlarga qo'l urdilar. N.Abdullayev shunday yozadi: "Bu yillarda o'zbek san'atining yangi tur va janrlari rivojlandi. Jumladan, vitraj, mozaika, gobelen, sgraffito san'ati rassomlarni o'ziga tortdi".¹ Bu izlanishlar ortidan yuzaga kelgan natijalar she'riyatda ham o'z ifodasini topdi. Shu jumladan ushbu davrga kelib musiqa san'atida ham jiddiyl o'zgarishlar va siljishlar ro'y bergan edi. "O'zbekiston kompozitorlarining asarlari respublika miqyosidan tashqarida ham tanila boshladi. Jumladan: Ikrom Akbarovning "Shoir qalbi"





poemasi va skripka uchun konserti, M. Burhonovning xor akapellari, G. Mushelning fortepiano konsertlari va organ asarlari, A.Kozlovzskiyning simfonik poemalari, S. Yudakovning "Maysaraning ishi" hamda M. Ashrafiyning "Dilorom" operalari" bunga misol bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda musiqa san'ati o'zidan oldingi davrlarga nisbatan o'z taraqqiyoti cho'qqisiga yetdi. Masalan, mazkur davrda O'zbekistonda Hindiston, Italiya, Fransiya, Yaponiya, Finlandiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Vengriya, Mongoliya, Gruziya, Ozarbayjon, Estoniya, Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston kabi mamlakatlarning milliy musiqa san'atiga bag'ishlangan haftaliklar o'tkazildi. Shu bilan birga O'zbekiston san'at vakillari ham Xalqaro anjuman, simpozium va festivallarda qatnashgan edilar. Shu bilan birga "XX asr o'zbek teatri madaniyatimiz tarixida ro'y bergan noyob hodisalardandir. 1914-yil Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasi bilan o'z pardasini ochgan o'zbek teatri ikki- uch o'n yillik ichida har bir xalq g'ururlansa arzugulik teatr sifatida maydonga chiqdi". Ushbu davrdan to 70-80- yillargacha teatr sohasi ancha yo'lni bosib o'tdi. Badiiy an'analarga boy o'zbek tatri jahon sahna san'ati tajribalarini o'zlashtirish bilan qisqa fursat ichida yetuk professional teatrga aylandi.

70-80- yillarda ko'p asarlar dunyo yuzini ko'rdi va bu asarlar hali-hanuzgacha o'z qimmatini yo'qotmadi.

O'zbekiston teatr jamoalari 70- yillarda Oybekning "Qutlug' qon", Uyg'unning "Qotil", A.Qahhorning "Ayajonlarim", S.Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni", O'.Umarbekovning "Shoshma quyosh", I.Sultonning "Noma'lum kishi", S.Azimovning "Qonli sarob" va boshqa asarlarni ham sahnalashtirdilar. Bular jumlasiga o'zbek akademik teatri tomonidan sahnalashtirilgan jahon klassikasi shoh asarlari – V.Shekspirning "Qirol Lir", "Hamlet" asarlari ham qo'shildi. Teatr sohasidagi bu o'sish ko'plab tomoshabinlarni o'ziga jalb qilgan edi. Teatr san'atidagi bu yuksalish she'riyatga ta'sir qilmay qolmadi. Buning misollariga quyiroqda obdon to'xtalsak.

Qamariddin Usmonov shunday yozadi: "O'zbekistonda teatr va musiqa san'ati birmuncha o'sdi. Hamza nomidagi o'zbek drama teatri jamoasi Shekspirning "Otello", va "Yuli Sezar", Uyg'unning "Navbahor", Abdulla Qahhorning "Shohi so'zana", N. Hikmatning "Bir sevgi afsonasi", R. Tagorning "Gang daryosining qizi", Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy", M. Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" asarlarini sahnalashtirdi". Yuqorida keltirib o'tgan san'at sohalari singari teatr ham o'sha davrlarda ancha yuksalgan edi. Bu yuksalish teatrning boshqa san'at sohalari bilan sintezlashuviga yo'l ochdi. Shu yillarda kino sohasi ham o'zbek madaniy hayotining muhim qismiga aylangan edi. "Respublikada iste'dodli kinematografchi kadrlar, rejissyorlar, operatorlar, ssenariychilar yetishib chiqdi. K. Yormatov, M. Qayumov, Y. Azamov, Sh. Abbosov, L. Fayziyev, Z. Sobitov kabi kino arboblarning nomi respublikadan tashqarida ham mashhur bo'ldi". Urushdan keyingi yillardan to





1985-yilgacha O'zbekiston kino san'atining yuksalish yillari bo'ldi. K. Yormatov tomonidan 1970-yili "Qora konsulning halokati" filmi yaratildi. 70-yillarda o'zbek kino san'atiga yosh talantli rejissyorlar, aktyorlar kirib keldi. Sh. Abbosovning "Toshkent non shahri" (1970), "Abu Rayhon Beruniy" (1974), A. Hamroyevning "Shiddat" (1971), R. Botirovning "Seni kutamiz yigit" (1972), E. Eshmuhammedovning "Umid qushi" (1975) kabi filmlarida davr farzandlarining hayoti, izlanishlari tasvirlangan. Rejissyor M. Qayumovning "Mirzacho'l" (1975), "Paranji" (1977) yaratig'lari Butun ittifoq va jahon kinofestivallarida tomoshabinlarga manzur bo'ldi va yuksak mukofotga sazovar bo'ldi. Ushbu san'at sohalari qatorida sirk, me'morchilik, raqs ansamblari sohalari ham ancha yuksalgan edi. San'at sohasining bu darajada yuksalishi she'riyatda yangi- yangi mavzularning qalamga olinishiga sabab bo'ldi. Yuqorida sanab o'tilgan san'at sohasining rivoji she'riyatga san'at mavzusining ommalashishidagi birinchi sabab edi.

Ikkinchi sabab: she'riyat boshqa san'at sohalari bilan sintezlashdi. Har bir ijodkor boshqa san'at sohasini anglashga, bu orqali zamon ruhiga, kayfiyatiga, dunyoqarashiga mos keladigan she'rlar yozishga bel bog'ladi. Har qanday san'at turi o'zining spetsifik xususiyati bilan boshqa san'at turlaridan ajralib turadi va shu xususiyati bilan yashaydi. Shu bilan birga san'at turlarining o'zaro aloqasi ularning imkoniyatlarini oshirib boradi. So'zning ekspressiv imkoniyatlarining egiluvchanligi va cheksizligi tufayli adabiyot har qanday san'atning badiiy mazmuni elementlarini o'zlashtirishga qodir. Gegel bu so'zni to'g'ridan-to'g'ri ruhga tegishli bo'lgan eng plastik material deb ataydi. Haqiqatni badiiy obrazlar shaklida aks ettirish inson tabiatiga xosdir. Ushbu tushuncha turli xil shakllarni oladi va madaniyatshunoslar bir necha yuz turdagi san'atni ajratib turadilar. Badiiy effektini kuchaytirish uchun ularning o'zaro ta'siri va o'zaro ta'sir jarayoni obyektivdir. XX asrga kelib she'riyat va boshqa san'at turlari o'rtasida o'zaro sintezlashuv kuchaya bordi. Bu jarayon o'z-o'zidan kelib chiqmadi, albatta. "Badiiy madaniyat, – ta'kidlaydi Yu. Borev, – verbal asosda quriladi: adabiyot barcha san'at turlariga aniq qiluvchi (tizimlashtiruvchi) ta'sir ko'rsatadi, uning kontekstida boshqa san'atlarda yaratilgan badiiy obrazlar qabul qilinadi". Poetik janr va shakllardagi izlanishlar qanchalik ko'p bo'lsa, badiiy- estetik ma'noni ifodalash usullari, yo'llari shunchalik ko'pligini ko'rsatadi. Bu izlanishlar ortida, albatta, boshqa san'at sohalari bilan aloqa (sintezlashuvi), jamiyatdagi ijtimoiylashuvning kuchayishi she'riyatda san'at mavzusining keng ko'lamda qalamga olinishiga yo'l ochgan ikkinchi omil deb bilamiz. San'at sohasining o'zaro sintezlashuvi san'at sohasining yanada noziklashuviga, uning shu kungacha ko'rilmagan qirralarini ko'rishga imkon beradi. She'riyatning rassomchilik bilan teatr bilan va h.k. sohasi bilan sintezlashuvidan yaralgan go'zal she'rlarning san'at mavzusida yozilishi buning isboti bo'ladi. Masalan, Xurshid Davronning "San'at" nomli she'rini olsak, ushbu she'rda she'riyatda





san'at mavzusini yozish bilan birga rassomchilik bilan sintezlashuv hodisasini ham ko'rishimiz mumkin.

Xona sovuq. Xontaxta uzra
Bo'm- bo'sh shisha. Unda oy aksi
Va burchakda turibdi muzlab
Oq bo'zdagi g'amgin qiz rasmi.

She'ning birinchi misrasidanoq kitobxon ko'z oldida sovuq xonaning qaysidir qismida xontaxta (kitobxon o'z tasavvuriga ko'ra joylashtiradi), uning ustida ichilib bo'shagan shishaga tushayotgan oy aksi yaltiraydi. Shoir shu yerda tomoshabinlarning nigohini burchakda muzlab turgan (ya'ni xona juda sovuq) oq bo'zga chizilgan g'amgin qiz rasmiga qaratadi. Kitobxon tasavvurida nogahon chizilayotgan suratni g'amga chayilgan bo'yoqlarda chizilgandagidek hisni tuyadi.

Derazada muzdan qatqaloq,
Rassom yig'lar, ko'zlari xira.
Uni qiynar olis xotira -
Mo'yqalamda yashagan titroq.

Yangi banddan shoir "tomoshabin" nigohini xonaning boshqa qismiga sovuqdan derazada muzlab qolgan qatqaloqqa qaratadi va u yerda "tomoshabin" yig'lab ko'zlari x, xira tortgan, chuqur qayg'u va o'ylar girdobidagi rassomni ko'radi, butun umrini, hislari-yu, tug'yonlarini mo'yqalam bilan bo'lishganini his qiladi.

Taqdir kechar shunday hamisha -
Xona sovuq, qotib qolgudek,
Qotgan nonu bo'shagan shisha
Va dunyoga kelgan mangulik.

She'ning yuqoridagi ikki bandida obyektivlashtirilgan tasvir ustuvor, lirik subyektni esa ko'rmadik. Uchinchi bandaga kelib esa lirik subyekt ichki kechinmalarini ochiq ifodalaydi. Shu yerda kitobxon uni qiynayotgan olis xotiralar nima ekanligini anglaydi. O'limidan so'ng sud qilingan, millati uchun kurashib xorlig-u faqirlik, tuhmat-u sotqinliklardan aziyat chekkan ma'rifatchilarimiz, umri qamoqlarda chirigan shoir-u ijodkorlarimizni eslaydi. Ushbu she'rda rangtasvir va she'riyatning sintezi yaqqol ko'rinadi. Ammo bu yerdagi san'at mavzusi va obyektiv tasvir bir vosita xolos. Lirik subyekt uchinchi bandda o'z xulosasini aytadi, bu tasvir ortidagi uni qiynayotgan asosiy og'riq qatag'onlik yillaridan beri davom etib kelayotgan zo'rlik edi nazarimizda. She'r 1974- yili yozilgan. Ijodkorlarga endigina erkinlikning jonsiz epkinlari yela boshlagan palla edi. Ammo shoir chin erkinlik istaydi. Bir rassom qismatida boshqa san'at vakillarining qay qismat yo'lida kelganligi va qay qismat yo'lidan borayotganini chuqur dard bilan ifodalaydi. She'ning mukammalligida ijodkor shaxsning badiiy universalligini ko'rishimiz mumkin.





A.Blok “yozuvchini rasmdan saboq olishga undaydi, yozuvchi uchun rassomning psixologiyasi va dunyoqarashini, uning dunyoni idrok etishini juda muhim deb biladi, garchi fikrlar, his-tuyg‘ular va taassurotlarni yetkazish vositalari har xil bo‘lsa ham”. X. Davron yoshligidan tasviriy san‘at bilan shug‘ullanadi. Uning teran nigohida tabiatni, borliqni musavvirona ko‘ra olish qobiliyati yuksak. Ayni shuning uchun ham rangtasvir va she‘riyatning go‘zal sintezini uning she‘rlarida juda ko‘p ko‘ramiz. Ushbu ikki san‘atning ortiga ulkan ijtimoiy dardni mahorat bilan yuklaganini yuqorida guvohi bo‘ldik. Shoir rassomchilikda anchagina qobiliyatli edi va keyinchalik ham bu san‘at bilan rassomlar bilan yaqinlikni yo‘qotmadi. Ijodkor avvalo jamiyat bilan hamnafas yashaydi. Biz asos qilib olgan ijodkorlarimiz she‘rlarida ham xalqning dardi, quvonchi, his-kechinmalari o‘z chizgilarini topgan. Ijodkor san‘at mavzusiga o‘zidan oldingi salaflarining dard-qayg‘ularini, kechinmalarini his qilgan holda murojaat qiladi. Bu esa san‘at mavzusining ko‘lamining kengayishiga yana bir omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu omilni ham yuqorida misol qilgan she‘rimizda ham ko‘rdik nazarimizda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev N. O‘zbekiston san‘ati tarixi. – T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2007.
2. Davron X. Bolalikning ovozi. – T.: Adabiyot va san‘at, 1986.
3. Hamdam U. Yangi o‘zbek she‘riyati. – T.: Adib, 2012.
4. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. – T.: Akademnashr, 2013.
5. Tursinboyev S. Teatr tarixi. – T.: O‘MKHTM, “Bilim”, 2005.
6. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi. – T.: Sharq 2003.
7. Боров Ю.Б. Эстетика. – М.: Политиздат, 1988.
8. Золотарева Л.Р. Взаимодействие изобразительного искусства и литературы // Вестник КарГУ. – Караганда, 2010.
9. История узбекской советской музыки. – Т., 1973, 5-с.

